



## INKLYUZIV TA'LIMDA MAXSUS PEDAGOG FAOLIYATI

**Nabiyeva Ozoda Muxtarjanovna**

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 62-DIUM inklyuziv ta'limda maxsus pedagog*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus pedagogning o'rni, vazifalari va kasbiy faoliyat yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, maxsus pedagogning ta'lim muassasasida o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikdagi faoliyati, individual yondashuvni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida maxsus pedagog kadrlarning o'rni va dolzarb masalalar ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *inklyuziv ta'lim, maxsus pedagog, alohida ta'lim ehtiyojlari, individual ta'lim rejasi, moslashtirilgan ta'lim.*

### Kirish

Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati ushbu sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus pedagoglar inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlatiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi.

Maxsus pedagoglar boshqa pedagoglar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilari bilan ishlash rejasini tuzadi va ularni sinfga uyg'unlashtiradi.

Maxsus pedagoglar koreksion ta'limni olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi. Zarurat bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, teng imkoniyatlarni ta'minlash va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga to'laqonli integratsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jarayonda inklyuziv ta'lim asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlashda esa maxsus pedagoglarning kasbiy faoliyati muhim o'rin tutadi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi va uning mohiyati:

Inklyuziv ta'lim - bu jismoniy, aqliy, sensor yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish



tizimidir. Uning asosiy maqsadi - har bir bolaga individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim olish sharoitini yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim:

bolalarda ijtimoiylashuvni kuchaytiradi;  
tenglik va bag'rikenglik muhitini shakllantiradi;  
jamiyatda diskriminatsiyaning oldini oladi.

Maxsus pedagogning inklyuziv ta'limdagi o'rni

Maxsus pedagog — alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan mutaxassis bo'lib, u inklyuziv ta'limning asosiy tayanch figurasi hisoblanadi. U nafaqat o'quvchi bilan, balki o'qituvchilar, psixologlar, logopedlar va ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Maxsus pedagogning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchining rivojlanish darajasini baholash;  
individual ta'lim rejasini (ITR) ishlab chiqish;  
moslashtirilgan o'quv materiallarini tayyorlash;  
pedagogik va korreksion mashg'ulotlarni olib borish;  
ota-onalarga maslahat va metodik yordam ko'rsatish.

Maxsus pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari

#### 1. Diagnostik faoliyat

Maxsus pedagog o'quvchining bilish jarayonlari, nutqi, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv darajasini o'rganadi. Diagnostika natijalari asosida individual yondashuv belgilanadi.

#### 2. Korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat

Bu yo'nalish boladagi mavjud nuqsonlarni kamaytirish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

#### 3. Konsultativ va hamkorlik faoliyati

Maxsus pedagog umumta'lim o'qituvchilari va ota-onalar bilan doimiy hamkorlik qiladi. Ular uchun tavsiyalar beradi, inklyuziv muhitni to'g'ri tashkil etishga ko'maklashadi.

#### 4. Monitoring va baholash

O'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish, ta'lim samaradorligini baholash ham maxsus pedagog faoliyatining muhim qismidir.

O'zbekiston ta'lim tizimida maxsus pedagog faoliyatining dolzarbligi

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu jarayonda malakali maxsus pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maxsus pedagog faoliyati samarali tashkil etilgan ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim natijalari sezilarli darajada yuqori bo'lmoqda.

Jamiyatning har bir a'zosi sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim va maxsus pedagogika sohalari bugungi kunda global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMTning 2006-yilgi “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi” hamda UNESCO tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlar inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.



Bugungi kunda ko‘plab davlatlar inklyuziv ta‘lim tizimini rivojlantirish yo‘lida islohotlar olib bormoqda. O‘zbekiston ham ta‘lim tizimini inklyuzivlashtirish jarayonida faol ishtirok etib, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun qulay muhit yaratishga harakat qilmoqda.

Ushbu tadqiqot inklyuziv ta‘lim va maxsus pedagogikaning nazariy asoslarini, uning ahamiyatini, xalqaro va milliy tajribalarni, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini yoritib beradi.

Inklyuziv ta‘limning joriy etilishi bugungi kunda butun dunyoda muhim masalaga aylangan. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda taxminan 93 million bola nogironligi sababli sifatli ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum. Bu muammo rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta‘limni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, 2019-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi" qonun va Prezident qarorlariga muvofiq, inklyuziv ta‘lim bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, jamiyatda hali ham nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan to‘liq tushuncha shakllanmagan. Ta‘lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratish, maxsus pedagogika mutaxassislarini tayyorlash va jamiyatning ushbu sohaga munosabatini o‘zgartirish zarur.

Inklyuziv ta‘limning ilmiy asosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogik nuqtayi nazardan, inklyuziv ta‘lim Vygotskiyning sotsialrivojlanish nazariyasi va Deweyning tajriba orqali o‘rganish konsepsiyasi bilan bog‘liq.

Maxsus pedagogika esa defektologiya, logopediya, psixologiya va terapiya fanlariga asoslanadi. Ushbu sohada asosiy ilmiy izlanishlar nogironligi bo‘lgan bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, O‘zbekiston olimlari tomonidan maxsus ta‘lim muassasalarida individual yondashuv va pedagogik reabilitatsiya usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Inklyuziv ta‘lim va maxsus pedagogika bo‘yicha xalqaro va milliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, BMT va UNESCO tomonidan chop etilgan hujjatlar, hukumat qarorlari va dasturlar tahlil qilindi. Shuningdek, inklyuziv ta‘lim bo‘yicha psixologik va pedagogik nazariyalar, ayniqsa, Lev Vygotskiy va Jon Dyui ta‘lim konsepsiyalari asosida o‘rganildi.

### **Xulosa**

Inklyuziv ta‘lim nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalar uchun, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish uchun pedagoglarni maxsus tayyorlash va qo‘shimcha treninglar tashkil etish zarur.
2. Ta‘lim muassasalarida moslashtirilgan darsliklar, qo‘shimcha texnologiyalar va maxsus uslubiy materiallar yetarli darajada bo‘lishi lozim.
3. Jamiyatda inklyuziv ta‘lim bo‘yicha tushunchani kengaytirish, ota-onalar va pedagoglarning bu boradagi bilimlarini oshirish kerak.
4. Inklyuziv ta‘lim tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun dunyo tajribasidan foydalanish lozim.

Inklyuziv ta‘limda maxsus pedagog faoliyati ta‘lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Maxsus pedagogning professional yondashuvi, individual ta‘limni tashkil etishdagi roli va hamkorlikka asoslangan faoliyati alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega



bo‘lgan bolalarning to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun maxsus pedagoglar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning malakasini oshirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019). Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida.
2. Dyson, A., & Millward, A. (2000). Schools and Special Needs: Issues of Innovation and Inclusion.
3. Florian, L. (2014). The Sage Handbook of Special Education.
4. Farrell, P. (2010). Inclusive Education: The Principles and Practice.
5. World Health Organization (WHO). (2011). World Report on Disability.
6. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi (2022). Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi.
8. Bines, H., & Lei, P. (2011). Disability and Education: The Long Road to Inclusion.